



Shaxsga Yo‘Naltirilgan Ta’lim Shakllari Va Uni Amalga Oshirish Metodikasi

G. Qurbanova.

“Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi”
mutaxassisligi 1I-bosqich magistranti,
ShDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim shakllari va uni amalga oshirish yo’llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, metodika, pedagogik texnologiya, metod, muhit.

Personality-Oriented Forms of Education and Methodology for Its Implementation

Annotation: This article highlights personality-oriented forms of education and ways to implement it in primary school students.

Keywords: Personality, Personality-oriented education, methodology, pedagogical technology, method, environment.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mustaqil O‘zbekiston jamiyatini yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarga ehtiyoj sezmoqda. Mikrosotsiumga qadam qo‘yayotgan har bir yosh ijtimoiy munosabatlar, ilmiy taraqqiyotga ziyraklik bilan qaray olishi, yangiliklarni tez idrok eta olishi lozim. Aksariyat hollarda o’quvchilar o‘z faoliyatlarini tushunib yetmaydilar. O‘z majburiyatlarini bajarishga sovuqqonlik bilan qaraydilar. Ularda ma’naviy-madaniy his-tuyg‘ular, ilmiy dunyoqarash yetarlicha rivojlanmaganligi ayon bo‘lmoqda. Chunki ularning ilmiy dunyoqarashi muhim qarorlar qabul qilishlariga asos bo‘ladi va bu dunyoqarash o‘quvchilarga erkin tanlov imkoniyatini beradi. Ilmiy dunyoqarash talabanining nuqtai nazarini barqarorlashtiruvchi asosiy vositadir.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlarga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi - o‘qituvchi hamda o‘quvchi - o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarini beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalilanadi, ularning ayrim asosiy belgilarini ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy pedagogik yondoshuv ta’lim jarayonining diqqat markazida o‘quvchining o‘quv-biluv faoliyatini qo‘yish, ta’lim jarayonini taxminiy loyihalash, diagnostikligi, maqsadning aniqligi va natijaning obyektiv nazorati (o‘z-o‘zini nazorat), ta’lim jarayonining yaxlitligi kabilarga qaratilgandir. O‘quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi uni o‘quv-biluv faoliyatini o‘zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning o‘quvchi ongingin predmatiga aylanishidir. Bu maqsadni mustaqil qo‘ya bilish, faoliyat usullarini tanlay bilish, o‘z ta’sirlari va munosabatlari doirasida boshqalar bilan kelisha bilish va koordinatsiyalash, o‘z-o‘zini nazorat qila bilishlarda ko‘rinadi. Bunday faoliyat ta’limning modulli texnologiyasi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Modul nima va uni qanday shakllantirish kerak? Modul lotincha “modulus” so‘zidan olingan bo‘lib – me’yor, o‘lchov degan ma’nioni anglatadi. Modul ta’lim jarayonida o‘rganilayotgan predmetni ma’lum qismlarga bo‘lib, uni o‘rganishning aniq tizimini yaratadi.



Modul dasturi, mustaqil o‘qishga o‘rgatadigan o‘quv qo‘llanma sifatida o‘quvchiga o‘quv moduliga kiritilgan o‘quv materiali blokini o‘qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta’lim samaradorligi oshadi.

Modul qo‘llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o‘qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad.
- ta’lim standartida berilgan predmet “o‘quv elementlarida” maqsadning oydinlashishi.
- modulni o‘rganish, texnologik usullar bo‘yicha dastur va tavsiyalar.
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o‘zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo‘yicha maqsadlar oydinlashishi.

- o‘z - o‘zini va o‘zaro nazoratni tashkil yetish bo‘yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta’lim jarayonida alohida modullar asosida o‘quv faoliyatini tashkil etilishi o‘quvchining ta’lim faoliyatining subyekti sifatida mustaqil, rejali bilim o‘zlashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi.

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o‘qituvchi o‘zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog‘i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o‘qituvchi:

- o‘quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya’ni, o‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;
- darsda o‘quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o‘quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;
- darsda o‘quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o‘rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;
- ta’limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o‘quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o‘rtasida o‘zaro yordamni tashkil etadi;
- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya’ni, har bir o‘quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;
- o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Modul – ta’lim mazmunining shunday bir yaxlit bo‘lagiki, u ta’lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimidir.


Modul tarkibi:

- ta’sirlarning maqsadli rejasi,
- axborot banki,
- didaktik maqsadga erishishga metodik rahbarlik.

Modulli ta’limning boshqa ta’lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

1. Ta’lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (bloklar)dan iborat bo‘lishi va ularni o‘zlashtirish ta’lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o‘quvchi uchun belgilanadi va u faqat o‘quv materiali hajmini o‘zlashtirishga oid ko‘rsamalarini emas, balki o‘zlashtirish darajasini ham o‘z ichiga oladi. Har bir o‘quvchi modulni qanday o‘rganish kerakligi, zaruriy o‘quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o‘qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.

2. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o‘tadi. Faqat modulgina ta’limni subyekt-subyekt asosida o‘tishiga yordam beradi.



3. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtining ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi. Shunday qilib har bir o'quvchi o'z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.

4. O'qituvchi o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o'quvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lib boshqaradi.

5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilarining har biriga individual maslahat bera olish va o'quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilalar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida keng muhim asosdir.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishslash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi). Shuningdek, modulli ta'limda o'quvchining erkin harakati ta'minlanadi, uning erkin o'sishi rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi, mustaqil fikrlashga o'r ganadi, o'ziga va o'zgalarga talabchanlik sifatlari shakllanadi. Shuningdek, modulli ta'limda o'quvchilarida ijobjiy axloqiy sifatlar – ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, xolis yordamlashish, haqgo'ylik, o'rtoqlari mehnatini xolis baholash kabi insonparvarlik sifatlari shakllanadi. Bunday ta'lim turi barkamollik sifatlarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shakllaridan yana biri masofaviy ta'limdir.

Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal, an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlari quyidagilar:

O'qituvchi→o'quvchi→kommunikatsiya.

Masofaviy ta'lim vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lim vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'limda ma'lum maqsad asosida ta'lim subyekti va obyektining ta'lim vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalgaloshadi.

Masofaviy ta'lim tizimi insonparvarlik prinsipiiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqidan mahrum bo'lmasligi lozim.

Masofaviy o'qitishda o'qituvchi talabaga o'quv materialini "Internet" tizimi orqali yuboradi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lim olishni istagan o'quvchilar veb saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriplarni bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (ye-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javobni yana elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa kerakli ko'rsatmalar beradi.


O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, vidiokonferensiyalardan foydalanadi.

Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish davrida o'quvchida mustaqil fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatları rivojlanadi.

Masofadan o'qitishda o'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishini tugatadi va o'qitishni tugatganligi to'g'risida sertifikat oladi.

Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

A) darslik,




- B) audio va vidiodarsliklar,
- V) veb-saytlar,
- G) elektron kutubxonalar,
- D) matnlar,
- Y) elektron darsliklar.

Albatta foydalanuvchi ixtiyorida masofadan ta’lim olishda multimediyali kompyuter, modem va telefon kabi vositalar mavjud bo‘lishi kerak.

XXI asr ta’lim jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda masofadan o‘qitish dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta’lim shakli sifatida rivojlanmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim shakllarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deganda, biz ko‘proq o‘quvchilarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyojlarini nazarda tutamiz. Bunda, ta’limning mazmuni o‘quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo‘naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo‘llab quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi. O‘quvchining o‘z o‘zini bilishi, shaxsning o‘ziga xosligi, uning rivojlanish darajasi kelgusidagi orzu, maqsadlariga erishish uchun qilayotgan hatti-harakatlari zamirida puxta bilim olish, ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlanish kabi maqsadlar yotadi. O‘quvchining qiziqishlari, fantaziysi aniq maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘lib, fanlardan davlat ta’lim sandartlari asosida nafaqat minimal darajadagi balki, maksimal darajadagi bilimlarni egallash bilan o‘z manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lishi mumkin. Buning uchun esa, o‘qituvchilar tomonidan ularning intilish va qiziqishlarini rag‘batlantrib borish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv orqali ta’lim jarayonini amalga oshirishda o‘quvchining bilim olish jarayonini o‘z ichiga olgan, o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘qituvchi munosabati hamkorligi va erkin tanlash prinsipi, o‘quvchidagi tabiiy qobiliyat (iqtidor) uni tanlagan sohasi bilan shug‘ullanishdan zeriktirmaydi. Aksincha, bilimlarni takomillashtirish sari undaydi. Chunki u aniq maqsad sari intilayotganligini tasavvur eta oladi, bu yo‘lda unga maslakdosh bo‘lib qo‘llab – quvvatlaydigan ustozlari bor.



O‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik - psixologik mexanizmlari, vositalari, usul hamda metodlarni yaxshi egallamog‘i lozim. Buning uchun maktab ma’muriyati va uslubiy kengashlar o‘qituvchini shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish mexanizmlari bilan qurollantirishga qaratilgan ilmiy-metodik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishlari, shuningdek, o‘qituvchini shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishga tayyorlashning umumiy va xususiy maqsadlari aniqlab olinishi kerak. Bu maqsadlar turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilar faoliyatining tashxisi natijalariga tayangan holda belgilanishi zarur. Chunonchi:

1. Faol bo‘lmagan reproduktiv faoliyat turiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar uchun o‘zining shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayoni tashkil etish sohasidagi nuqtai nazarlarini ifodalashga o‘rgatish maqsadi qo‘yilishi.
2. Ixtirochi, erkin fikrlovchi o‘qituvchilarni shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv –biluv jarayonida o‘quvchi bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan dialogni yo‘lga qo‘yish metodikasini o‘zlashtirish ustuvorligi.
3. Ijodkor, tadqiqotchi o‘qituvchilar esa o‘z faoliyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan holda ifodalash darajasiga ko‘tarilishlari talab etiladi.

Bu tipdagи o‘qituvchilar o‘quv-biluv jarayonining mazmunidan kelib chiqqan holda, o‘z pedagogik faoliyatlarining maqsadlarini aniq bayon eta olishlari kerak. Buning uchun har bir toifaga mansub pedagoglarning saviyasini aniqlashga qaratilgan aniq savol va topshiriqlar tizimi pedagogik jamoa tomonidan ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini amalga oshirish yo‘llari xilma xil faoliyat turlaridan iborat bo‘lib, u turli ta’lim texnologiyalari va o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining birligi asosida tashkil etiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent, 2022
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2021
3. Tolipov O‘. va b.q. O‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – Toshkent, 2004. – 64 b.
4. Abdullayeva B.va b.q. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani.-Toshkent, 2022
5. Муродова, З. К. Развитие научного и профессионального творчества у будущих учителей. Бюллетень науки и практики, 7(4), 416-421. (2021).
6. Muradova Z.K. Constructions of developing scientific and professional creativity in future teachers. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022.-101-104c.
7. Муродова, З. К. Формирование методологическая культура будущего педагога. International journal of formal education. Volume: 3 Issue: 2 February–2024 ISSN: 2720-6874. Ст-167-170.
8. Murodova Z. K. Innovative Activity as a Factor of Developing Methodological Culture of Future Teacher //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 2.